# XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 26 - iyul VI-68-100-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

**Qiziriq tumani mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida.**

O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksining 126-moddasiga muvofiq tuman byudejetining 2023-yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakllangan mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumani mahalliy budjetining joriy yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi **jami 2284 600,0 ming so‘mni** tashkil etganligi ma’lumat uchun qabul qilinsin.

3. Joriy yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan **jami 2180 600,0 ming so‘mni mablag‘** ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali

foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Qiziriq tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Tuman kengash raisi** **Sh.A.Rajabov**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023-yil 26-iyuldagi
VI-68-100-8-113-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Qiziriq tuman mahalliy budjetining 2023-yil II-chorakida daromadning ortirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

## M A ‘ L U M O T

| T/r | Tashkilotlar nomi | Ajratilgan mablag‘ maqsadi | Miqdori (ming so‘mda) | Foiz hisobida |
|---|---|---|---|---|
| A | 1 | 2 | 3 | 4 |
| **Jami shakllangan manba** | | | **2 284 600,00** | **100%** |
| **Jami ajratiladigan mablag‘:** | | | **2 180 600,00** | **95,6%** |
| 1 | Tuman hokimligiga | “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga | 685 000,00 | 30,0% |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2 | | Aloqa xizmati uchun (telefonlar, hokim yordamchilariga internet uchun) | 5 000,00 | 0,2% |
| 3 | | “Milliy gvardiya” xodimlari ish haqi to‘lovi uchun | 50 000,00 | 2,2% |
| 4 | | Tuman hokimligi xizmat mashinalari uchun ehtiyot qismlar olish xarajati uchun | 50 000,00 | 2,2% |
| 5 | | Tuman hokimligi xizmat mashinalari uchun yoqilg‘i (metan) olish xarajati uchun | 12 000,00 | 0,5% |
| 6 | | Tuman hokimligiga marka to‘lovi uchun | 3 000,00 | 0,1% |
| 7 | | Internet tarmog‘i to‘lovi uchun | 7 000,00 | 0,3% |
| 8 | | Maxsus pochta xizmati to‘lovi uchun | 2 000,00 | 0,1% |
| 9 | | Tuman hokimligi xodimlarini 2023-yil aprel oyida o’tkazilgan referendum va Prezident saylovlarida faol qatnashgan uchun rag‘batlantirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun | 31 500,00 | 1,4% |
| 10 | | Tuman hokimligi tex xodimlarini rag‘batlantirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun | 47 500,00 | 2,1% |
| 11 | | Tuman hokimligiga olingan kondisioner uchun | 8 000,00 | 0,4% |
| 12 | | Tuman hokimligiga olingan kabel uchun | 5 800,00 | 0,3% |
| 13 | | Tuman hokimligiga olingan bayroq va boshqa konselariya mollari uchun | 7 800,00 | 0,3% |
| 14 | | Tuman hokimligi tomonidan olingan sovg’a (kir yuvish mashinasi) uchun | 3 700,00 | 0,2% |
| 15 | | Mahalla raislariga olingan kompyuter jamlanmasidan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun | 38 160,00 | 1,7% |
| 16 | | Tuman hokimligi xizmat mashinalari uchun yoqilg‘i (benzin) olish xarajati uchun | 12 000,00 | 0,5% |
| 17 | | O‘tkazilgan tadbir xarajati uchun yuzaga kelgan qarzdorlik | 20 000,00 | 0,9% |
| 18 | | "Santexgazmontaj" korxonasi oldida qarzdorlikni bartaraf etish uchun | 50 000,00 | 2,3% |
| 19 | | “O‘tkir Shaxboz Qurilish” MChJ | 20 000,00 | 0,9% |
| 20 | | “Ulug‘bek Abbos” Qurilish korxonasi oldidagi qarzdorlik uchun | 90 000,00 | 3,9% |
| 21 | | Davlat bojlari | 18 000,00 | 0,8% |
| 22 | | O‘zbekiston kasaba uyushmasiga bolalar oromgohiga | 114 000,00 | 5,0% |
| 23 | | Ekalogiya atrof muxit jamg‘armasi | 46 000,00 | 2,0% |
| 24 | | “Globol-Tezkor-Qurilish”ga tuman hokimligi xojatxonasini ta’mirlashdan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun | 5 000,00 | 0,2% |
| 25 | | “SMART MILLENIUM TRADE”ga tuman hokiligiga olgan jixozlardan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun | 5 000,00 | 0,2% |
| 26 | Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga | “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga | 343 000,00 | 15,0% |
| 27 | | “Ayollar daftari” jamg‘armasiga | 343 000,00 | 15,0% |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 28 | Tuman obodonlashtirish boqarmasiga | “Yashil makon” dasturi doirasida olingan tut ko’chati uchun | 50 000,00 | 2,2% |
| 29 | Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga | Chekka viloyatdan kelgan o‘qituvchilarga ijara to’lovi | 39 140,00 | 1,7% |
| 30 | Tuman kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi | MFY xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasi uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun | 69 000,00 | 3,0% |